

Qiziqarli adabiy kecha

Talabalarga xushnudlik baxsh etish niyatida tarbiyachi - pedagog, psixolog Dilorom Sagdullayeva tashabbus bilan chiqdi. Iqtidorli aktyor, prodyuser va muqallid Sayfiddin Fayziyev taklif etilib 2-TTJ talabalariga qiziqarli ijodiy kecha tashkillashtirildi.

Turli badiiy filmlardagi Vatanni sevish tuyg'usi, ota - onaga, aka-ukaga hurmat mavzui rejissyorlar mahorati bilan yorqin kartinalarda aks etayotgani haqida so'zladidi. Hozirda talabalarga berilayotgan imkoniyatlar borasida to'lqinlanib so'z yuritdi.

So'ngra Sayfiddin Fayziyev lirik chekinishlar qilib she'r, monologlar aytib berdi. Tadbir savol - javoblarga boy bo'ldi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qildilar. O'z navbatida tegishli javoblarni oldilar. Tadbir juda zavqli va qiziqarli tarzda kechdi. Yotoqxonada istiqomat qiluvchi "GIM" va "GTS" talabalari ancha taassurotlarga ega bo'lishdi.



**Tarbiyachi pedagog, psixolog Sagdullayeva Dilorom Muxiddinovna axboroti
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**